JIZZAX VILOYATI
XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING
QARORI

2022 - yil 14 - iyun VI-45-147-3-44-K/22 Baxmal tumani hokimligi

Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek Jizzax viloyati hokimining 20.12.2021 yilda yuborgan 01-1971-sonli chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan xatlov natijasida aniqlangan, qayta nomlash lozim bo‘lgan tumandagi 17 geografik ob’yektlar qayta nomlanib, respublika toponomika ekspert komissiyasiga yuborilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yilning 22-aprel kuni 08-03207-sonli ekspert xulosasi kelib tushdi. Xulosaga ko‘ra, 17 ta geografik ob’yekt uchun yuborilgan nomlar “Geografik ob’yektlar to‘g‘risida”gi qonun talablariga muvofiq deb topilgan.

Tumanda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaning axborotini muhokama qilib, mahalliy davlat to‘g‘risidagi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr

agentligining 2022 yilning 22 aprel kungi 08-03207-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda Respublika toponomika xizmati Ekspert komissiyasi xulosasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumanda Geografik ob’yektlani nomlash va qayta nomlash bo‘yicha amalga oshirilgan va bajarilishi kerak ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaning axborotini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari-mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (B.Mirzabekov) yangi nomlangan aholi punkti va qabristonlarda ishlarni tashkil etish va yakuniga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Abdullayev) mahalla va qishloqlardagi qabristonga berilgan yangi nomlarni peshlavhalarga joylash va bu ishlarni oxiriga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman kadastr va tuman stasistika bo‘limlariga yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik ob’yektlarni tuman haritasiga joylashtirish, shuningdek tegishlicha tuman stastistika ma’lumotlarini o‘zgartirish vazifalari yuklatilsin.

6. ”Baxmal hayoti” gazetasi tahririyati (T.Berdiyev) va tuman hokimlgi axborot xizmati (A.Egamberdiyev)larga O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining o‘rinbosari X.Xo‘jamurotov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi, tuman hokimi **M.Anarbayev**

Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining
2022 yil 14 iyundagi
VI-45-147-3-44-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi ayrim qabristonlarga yangi nom berish to‘g‘risida

№	Geografik ob’yekt toifasi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’yektning amaldagi nomi	Geografik ob’yektga taklif qilingan nom
1.	qabriston	O‘rmonchi MFY	“Yangimozor”	“O‘rmonchi”
2.	qabriston	Sangzor QFY	“Jadik-1”	“Jadik-1”
3.	qabriston	Sangzor QFY	“Jadik-2”	“Jadik-2”
4.	qabriston	Qutlug‘obod MFY	“Qo‘rg‘ontepa”	“Qo‘rg‘ontepa”
5.	qabriston	Qutlug‘obod MFY	“Yo‘ldoshboy”	“O‘rtabaland”
6.	qabriston	Qutlug‘obod MFY	“Barlos-1”	“Barlos-1”
7.	qabriston	Mustaqillik MFY	“Saxovatpeshalar”	“Toshtepa”
8.	qabriston	Uzunbuloq QFY	“Raim bobo”	“Raim bobo”
9.	qabriston	Madaniyat MFY	“Madaniyat”	“Mohitepa”
10.	qabriston	Madaniyat MFY	“Qurbonzo‘r”	“Moziy”
11.	qabriston	G‘allakon MFY	“O‘damali-1”	“O‘damali-1”
12.	qabriston	Saroy MFY	“Saroy-2”	“Saroy-2”
13.	qabriston	Shodlik MFY	“Shodmon”	“Sokinlik”
14.	qabriston	Gulbuloq QFY	“Misr”	“Mangulik”
15.	qabriston	Navbahor MFY	“Do‘smat”	“Qo‘shchinor”
16.	qabriston	Mo‘g‘ol QFY	“Mo‘g‘ol-3”	“Bog‘imazor”